

MIF VA UNING ILMIIY O'RGANILISHI MASALALARI

Xodjiyeva Hanifa Odiljon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379375>

Annotatsiya. Ushbu tezisda miflarning paydo bo'lishi, ularning insonlar ongida namoyon bo'lishi, shuningdek, miflarning insonlar hayot tarzida tutgan o'rni haqida ma'lumot berilgan. Qadimgi odamlar tabiat kuchlari oldida ojiz bo'lganligi sababli, turli jonli va jonsiz narsalarga sig'inishlari, xayolan xudolarga murojaatlarining natijasida miflar paydo bo'lgan desak adashmaymiz.

Kalit so'zlar: mif, mifologiya, mifologik dunyogarash, Avesto, xudolar, totemizm, anemizm, fetishizm.

Muhokama va natijalar

Mif yunoncha "mythos" so'zidan olingan bo'lib, "rivoyat, afsona, asotir, hikoya, masal" degan ma'nolarni bildiradi. Uning tavsifi esa adabiyotlarda turlicha yoritiladi. Masalan, bir manbada "Qadimgi odamning olam va borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlarining majmui"¹ deb berilgan bo'lsa, boshqa manbada esa "Xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima"² deb beriladi. Aslini olib qaraganda, bu ikki tavsif bir birini to'ldirib turadi. Qadim zamonlardayoq olamning qanday paydo bo'lganligi, yil fasllarining o'zgarishi, yerdagi tabiiy ofatlarning mohiyatini anglamagan inson o'zicha izoh izlashga harakat qiladi. Natijada, dastlab yerni nimadir ko'tarib turgan bo'lsa kerak, degan tushunchalar, keyinroq esa har bir hodisa sharhini ifodalovchi xudolar o'ylab topilgan. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, miflar - ibtidoiy jamoa vakillarining o'zi yashab turgan olamni kashf etishga bo'lgan intilishidan paydo bo'lgan.

Miflar quyidagi turlarga bo'linadi.

- 1) ibtidoiy miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar);
- 2) samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar);
- 3) antropogenik miflar (g'ayrioddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar)
- 4) sig'inish miflari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq, masalan, suv, o'simlik, olovga sig'inish haqidagi miflar);
- 5) etnogenetik miflar (urug' qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; masalan, 92 o'zbek urug'larining paydo bo'lishi haqidagi mif);
- 6) kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar, masalan, ayamajuz, ahman-dahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar);
- 7) esxatologik miflar (olamning intihosi haqidagi, masalan, oxirzamon to'g'risidagi miflar).

Bugungi kunda jahon folklorshunosligida mifning xalq og'zaki ijodiga aloqadorligi haqida ikki xil qarash yetakchilik qilmoqda. G'arbiy Yevropa olimlari mifni XIX asrdagidan butunlay boshqacha nuqtai nazardan o'rganmoqdalar. Ular endi oldingilaridan farqli o'laroq,

¹ Babadjanova. N. "Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson ongiga ta'siri" // Academic research in educational sciences, 2021. -B.1501-1505.

² Murodova. M. Folklorshunoslik va etnografiya. T.: "Aloqachi" nashriyoti, 2008. -B. 11-14.

mifni odatiy ma'nosida "ertak", "antastika", "xayol" deb emas, balki ibtidoiy jamiyatlarda tushunilganidek, "haqiqiy voqea" va eng muhimi, muqaddas, ahamiyatli va taqlid qilish uchun namuna bo'ladigan voqea sifatida talqin qilmoqdalar. Bir qator olimlar mifni folklor janri sifatida qarashni taklif etsalar, ba'zi birlari mif diniy tushuncha, unda dinning yetakchilik qilishi sababli folklor janri bo'la olmaydi deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha, mif dastlab diniy tushunchalardan paydo bo'lgan bo'lsa-da, og'izdan-og'izga o'tib kelishi, jamoa tomonidan yaratilganligi, muallifi noaniqligi, ijrochi almashgani sayin variantlari ham ortib borishi bilan folklor namunasi barcha talablariga javob bera oladi.

Jahon xalqlari miflari ensiklopedik lug'atida mif shunday ta'riflanadi: Mifologiya (grekcha. μυθολογία ot μῦθος — "rivoyat", "hikoya qilish" va λόγος — "so'z", "hikoya", "uqish") — miflarni o'rganuvchi fan sohasidir. Miflar dunyoning yaratilishini fantastik tarixi, xudolar va qahramonlarning ishlari haqida hikoya qiluvchi; insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida dunyoni anglash usuli, jamoa-qabila tafakkurining asosiy usuli, tevarakatdagi voqelikni va inson mohiyatini tushuntirishning eng qadimiy usuli bo'lib, zamonaviy fanda miflar va ularning mohiyatini, tafakkur tadrijida tutgan o'rnini aniqlovchi fan sohasidir³.

Mifologiyada xalq tabiat va ijtimoiy turmushni xayolan, g'ayritabiiy, ongsizlarcha, badiiy qayta ishlab chiqqan. Masalan, Gomerning "Illiada", hind eposi "Romayana", o'zbek xalq eposi "Alpomish" va boshqalarda xalqning o'tmishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti, madaniyati, urf-odatlar, an'analari, axloqiy, diniy, siyosiy qarashlari va tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Bu rivoyat va afsonalarda ijtimoiy ong shakllari to'la shakllanmagan vaqtda ularning elementlari haqidagi tasavvurlari shaklida o'z ifodasini topgan. Mifologik dunyoqarash, birinchidan, muayyan xalqning yoki jamoaning qarashlari, ikkinchidan, unda jamiyatning ma'naviy va madaniy qadriyatlarini mujassamlashgan. Uchinchidan, unda tabiat va jamiyat bir butun borliqning umumiy birligi, aloqadorligining dastlabki manzarasi ifodasini topgan. Mifologiyaga shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

A. Abdurahmonovning ta'rifida, totemizm -(Shimoliy Amerika hindularining o'jibve qabilasi tilidagi "totem" - "uning urug'i" so'zidan olingan) dinning insoniyat tarixida bundan 30-40 ming yil, balki bundan ham avvalroq yuzaga kelgan ilk shaklidir. Totemizmg sig'inuvchi xalqlar o'zlarini biror bir hayvon, o'simlik yoki jonsiz narsadan paydo bo'lgan deb tushunadilar. Turkiy xalqlar o'zlarining ota-bobolari ho'kiz, ot, ilon, bo'ri, it, bo'g'u kabi hayvonlardan kelib chiqqan deb tushunishgan va ularga e'tiqod qo'yishgan. Gerodotning "Tarix" kitobida skiflarning birinchi ajdodlari dunyoga kelishi bilan bog'langan afsonalar totemizmning yorqin namunasi. Totemizmg asoslangan afsona va asotirlarni ko'p uchratamiz. Masalan, "Targ'itoy afsonasi", "Skifning tug'ilish afsonasi" mifologik afsonalarida, yarmi ilon, yarmi ayol bo'lgan obrazlardan dunyoga odam urug'i tarqalganligi, yoki tarixiy qabilalarning boshliqlari tug'ilganligining guvohi bo'lamiz. Bu kabi afsonalar haqiqatdan ancha uzoq bo'lsa-da, qadimgi insonlarning tassavurlarida bu haqiqatdir. Shuningdek bo'ri totemi turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lib, ular o'zlarini ona bo'ridan tarqalgan deb hisoblashadi, shuningdek turkiy xalqlar og'zaki ijodida bo'ri urug'boshi, balo ofatlardan

³ Мифы народов мира: Энцикл. в 2 т. / гл. ред. С. А. Токарев. — 2-е изд. — М.: Советская энциклопедия, 1987-1988.

saqlovchi madadkor kuch sifatida ulug'langan va bu haqida ko'plab afsonalar va ertaklar ham mavjud ("Cho'loq bo'ri", "Bo'ri qiz", "Bo'ri" kabi)⁴

Ibtidoiy odam tabiat haqidagi tasavvurida o'zini tabiat kuchlari va hodisalari bilan aynan bir narsa deb hisoblaydi, jonsiz narsalarga jonli deb qaraydi. Bu xildagi ibtidoiy tushunchalar kompleksi animizm nomini olgan. Uning yorqin namunasi ertaklarning qadimiy motivlarida o'z ifodasini topgan. "Oq bilakxon" ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, "Ochil, ochil, qamishlar"da qizning qamish orasiga kirib ketishi, "Yoriltosh"da toshning yorilish mo'jizasi, qizni bag'riga olib yana yopilishi, "Yalmog'iz kampir" ertagida odamlarning toshga aylanib qolishi, "Qilich botir"da esa qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar ana shu animistik tushunchalar natijasidir. "Yoril, yoril, toshlar-ay", "Ochil, ochil, qamishlar", "Sangil sopol tosh, sen menga yo'ldosh", "Sim-sim, och eshigingni" kabi iltijo qilib yolvorishlar o'sha narsada jon bor degan tushunchaning obrazli ifodasidir. Yaqin kunlarga to'y va boshqa marosimlarda gulxan yoqish, uning atrofida aylanish, quyosh, oy tutilganda qozon, chelak, jom kabilarni chalish hollari mavjud ediki, bu, o'sha yo'qolib borayotgan qadimiy tasavvurlarning izlaridir. Mifologik afsonalarda, asosan, yer va osmon xudolari, homiy kuchlar, pirlar, avliyolarning g'ayritabiiy ishlari, insonlarga ko'magi, mifologik pahlavonlar, yer yuzida odamning paydo bo'lishi haqida hikoya qilinadi. Ularning epizodlarida islomga qadar amal qilgan qadimgi dinlarga aloqador talqinlar uchraydi. Ibtidoiy insonlarning dunyoqarashi, tasavvur-tushunchalari, diniy e'tiqodlari namoyon bo'ladi.

O'zbek folklori mifologik obrazlar tizimiga g'oyat boy bo'lganligi bois mifshunoslikda bu yo'nalishda bajarilgan tadqiqotlar alohida silsilani tashkil etadi. Bu borada *M.Jo'raev* ("Alpomish" dostonida mifologik obrazlar" - 1999), *J.Eshonqulov* ("O'zbek folklorida dev obrazi" - 1996; "Folklor: obraz va talqin" - 1997; "Epik tafakkur tadriji" - 2006), *B.Jumaniyozov* ("O'zbek folklorida yalmog'iz obrazi" - 1996), *O.Qayumov* ("O'zbek folklorida pari obrazining genezisi va badiiy talqini" - 1998), *D.Fayzieva* ("O'zbek folklorida ilon-ajdar obrazining epik talqini" - 2004)lar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar folklorshunoslikda ilgari o'rganilmagan muammolarni hal qilishga qaratilganligi, yangi faktik materialni tahlil ob'ektiga kiritganligi va muhim nazariy umumlashmalarga olib kelganligi bilan alohida ajralib turadi.

Folklorshunoslikka "o'zbek mifologiyasi" tushunchasi olib kirildi va u turkiy mifologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi aholining e'tiqodiy qarashlari, tasavvur va ishonchlarini o'zida mujassamlashganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu masalalar bizning "O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar" (1994), "O'zbek xalq samoviy afsonalari" (1995), "Bo'ri haqidagi qadimgi turkiy miflar va o'zbek folklori" (1998) kabi tadqiqotlarimiz, shuningdek, folklorshunos SH.SHomusarov bilan hammualliflikda yozilgan "O'zbek mifologiyasi va arab folklori (2001)" kitobimizda atroflicha yoritildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, miflarning paydo bo'lishi ibtidoiy insonlarning olamni anglashga bo'lgan harakatlari natijasidir. Shuningdek, miflarning shakllanishidagi asosiy rolni diniy dunyoqarashlar egallagan desak adashmaymiz. Ularda ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi aks etgan bo'lib, ibtidoiy odamlar bunga chin dildan ishonishgan. Shu asnoda, insonlar tabiatda ro'y berayotgan har bir narsa-hodisadan ma'no izlashga harakat qilgan. Natijada,

⁴ Abduraxmonov.A. "Turkiy xalqlar og'zaki ijodi". Samarqand,2006. B-13-22.



xayolan turli xudolarning mavjudligiga ishonib, ularning qahrini keltirmaslikka harakat qilishgan. Bundan tashqari, turli xil jonsiz narsalarga sig'inishgan va tabiatdagi bir hayvon omad keltirishiga, boshqasi esa baxtsizlik keltirishiga ishonishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Babadjanova N. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson ongiga ta'siri // Academic research in educational sciences, 2021. –B. 1501-1505.
2. Murodova M. Folklorshunoslik va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2008.
3. – B. 11-14.
4. Мифы народов мира:Энциклопедия. в 2 т. / gl. red. S. A. Tokarev. — 2-ye izd. — M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1987-1988.
5. Abduraxmonov A. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. Samarqand,2006. –B. 13-22.
6. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.:Mumtoz so'z, 2010. –B. 36-46.
7. Aliqulova M., Karimova Z. Dunyo xalqlari miflari: tushuncha va mazmun mohiyati. Science shine, 2025. –B. 168-173.
8. Abdurazzoqova F. Dunyoqarashning tarixiy shakllari:mifologik,diniy,falsafiy va ilmiy dunyoqarash”// Xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2024. –B. 271-275.
9. Nazimova H. Mif va afsonalarda xayoliy obrazlarning tahlili // Current approaches and new research in modern sciences. –B. 151-155.
10. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001. – B. 22-48.